O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://strategiya.uz
2. Mo‘minov, T. (2020). O‘zbekistonda ta’lim islohotlari: hozirgi holati va istiqbollari. Markaziy Osiyo dasturi, Jorj Vashington universiteti.
3. Rashidov, F. va To‘raev, B. (2021). O‘zbekistonda oliy ta’lim islohotlari: yutuq va muammolar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti matbuoti.

TA’LIM TIZIMIDA SIFATLI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

p.f.f.d., dots. Zaripova Dilnoza Anvarovna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Ummatova Nilufar Baxodir qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
nilufarummatova6@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqola O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va vazifalarini tahlil qiladi. Texnologik integratsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimini samarali o'sish uchun zarurdir. Maqolada ta'limning yuqori sifatini ta'minlash uchun kadrlar tayyorlash tizimining isloh qilinishi va huquqiy asoslarining yaratilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, integratsiya, strategiya, texnologiya, innovatsion, muassasa, mutaxassis, masofaviy ta’lim.

Bugungi kunda O’zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalarini amalga oshirishishda bir necha qiyinchilik va to’siqlarga duch kelmoqda. O`zbekistonda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo`lida jadal harakat qilib borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilinmoqda va ta’lim ustuvorligini ta’minlash uchun ta’lim to’g’risida qonunlar ishlab chiqilmoqda. Bugungi dunyoda texnologiyalar juda ham tez rivojlanmoqda va shu o’zgarishlarga mos ravishda ta’lim tizimi ham integratsiya qilinishi kerak. Ta’lim jarayonida o’qituvchilar va o’quvchilar uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishni joriy etish, onlayn ta’lim vositalarini qulaylashtirish va ta’lim platformalarini rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda ta’lim tizimda shaxsiy ta’limga ham e’tibor berilishi va o’quvchilarning qiziqishlari ham inobatga olinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o`zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo`yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilyapti. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm-fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o`z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib,

yangilab, to`ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o`zgarishlar bo`lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini komponentli yondashuvi asosida tashkil etish va boshqarishni taqozo etmoqda.[1]

Hozirda yurtimizda ta’lim sohasini tubdan modernizatsiya qilish yo’lida uning yuqori darajasiga erishish va yanada takomillashtirish bo`yicha xorijiy va mahalliy tajribalar ham tadqiq qilinmoqda. Ta’lim sifati bu butun ta’lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish bosqichiga ega bo`lgan jarayondir. U ta’lim muassasalari faoliyatidagi iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va siyosiy muhitning o`zgarishi bilan izohlanadi. Ta'lim tizimini sifatini oshirish uchun ta'limda qulaylik va samarali o'quv usullari tadqiq qilinishi zarur. O'quvchilar va o'qituvchilar uchun innovatsion va interaktiv ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlari va resurslarining rivojlantirilishi ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi.

Barcha talablarga to’liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash hozirgi kun zamon talabi hisoblanadi. Mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalash, o’qitish bilim berish, zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish va yangi texnologiyalardan to’g’ri foydalanishni o’rgatish ishlari keng ko’lamda amalga oshirilmoqda. Ulardan eng muhimlaridan biri masofadan o’qitish texnologiyasini joriy etishdir. Hozirda texnologiyalar keng rivojlanib borayotgan davrda masofaviy ta’limda tahsil olish keng ommalashib bormoqda. Chunki bu ta’lim tizimi o’zining ijobiy taraflari bilan boshqa ta’lim turlaridan farq qilmoqda.

Ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada ta’lim turlari to`g`risidagi yangi qonun va qoidalar hayotga joriy etilmoqda. Misol uchun, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning huquqiy – me’yoriy asosi bo’lgan qonunlar yaratildi. «Ta’lim to`g`risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari uzluksiz ta’lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni yaratish, yuksak mehnat intizomini shakllantirish vazifasini yaratadi.

Ta'limni ommaviylashtirish hozirda ta'limning global tendensiyasiga aylandi. "Barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash" 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalaridan biridir

Quyidagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim strategik maqsadlari hisoblanadi:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

- sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari asosiy o'ringa qo'yilgan.[2]

Xulosa qilib aytganda ta’limni rivojlantirish strategiyasini amaliyotga joriy qilish orqali professional ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish, boshqarishning samarali modellarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida yuqori intellektual salohiyatli, yuksak axloqiy sifat va fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://interonconf.org/index.php/iisrc/article/view/4586/4082

2. Strategic objectives and priorities of higher education system development Muallifi: Shoira Akbarovna Xusinova Aktam Xatamovich Xolov Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Nadira Egamberdiyevna Yuldashova

3. Gafforov Ya. X. (2020). Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Indiya. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.

4. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212.

ПОДГОТОВКА БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИНФОРМАТИКИ В ОБЛАСТИ СКВОЗНЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

к.п.н., доц. Аниськин Владимир Николаевич,
к.п.н., доц. Добудько Александр Валерьянович,
д.п.н., проф. Добудько Татьяна Валерьяновна
Самарский государственный социально-педагогический университет
vnaniskin@gmail.com

Аннотация: в работе рассматриваются вопросы обучения будущих учителей информатики средствам сквозных цифровых технологий. Приводятся возможные структурные изменения в образовательных программах, призванные непосредственно обеспечить должный уровень подготовки студентов в области сквозных цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровая трансформация; сквозные цифровые технологии; искусственный интеллект; большие данные; компоненты робототехники и сенсорика; технологии дополненной и виртуальной реальности; новые производственные технологии; промышленный Интернет;